

Muallif: Abduxalimova Gulyuz Ikrom qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti o'q'ituvchisi

Annotatsiya

Mazkur kurs ishida huquqiy munosabatlar tushunchasi, ularning mohiyati, asosiy belgilari hamda tuzilishi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy munosabatlarning subyektlari, obyektlari va mazmuni batafsil yoritilib, ularning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan. Ishda huquqiy munosabatlarning turli mezonlar asosida tasnifi, jumladan huquq sohalari, mazmuni va xarakteriga ko'ra turlari ko'rib chiqilgan.

Bundan tashqari, huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida yuridik faktlarning o'rni, ularning turlari va huquqiy oqibatlari ilmiy asosda bayon etilgan. Kurs ishida huquqiy munosabatlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati, ularning huquqni amalga oshirishdagi roli va zamonaviy sharoitdagi o'rni ham tahlil qilingan.

Natijada huquqiy munosabatlar huquq tizimining muhim elementi sifatida baholanib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy munosabat, huquq normasi, subyekt, obyekt, huquq va majburiyat, yuridik fakt, hodisa, harakat, mutlaq munosabat, nisbiy munosabat, moddiy huquq, protsessual huquq, huquq tizimi, huquqni amalga oshirish.

Kirish: Huquqiy munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarning huquq normalari orqali tartibga solinadigan muhim shakli hisoblanadi. Ular orqali huquqning amaliy ifodasi ta'minlanib, fuqarolar, tashkilotlar hamda davlat o'rtasidagi munosabatlar huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Shu bois huquqiy munosabatlar huquq tizimining ajralmas elementi sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda jamiyat hayotining turli sohalarida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar huquqiy munosabatlarning mazmuni va ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti, demokratik islohotlar hamda inson huquqlarini ta'minlash jarayonida huquqiy munosabatlar muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi huquqiy munosabatlarning mohiyatini ochib berish, ularning asosiy belgilari, tuzilishi va turlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, huquqiy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'рни va ahamiyati ham yoritiladi.

Huquqiy munosabat tushunchasini uning belgilaridan kelib chiqishi:

Huquqiy munosabatlar – shaxslar o'rtasidagi yuridik aloqa bo'lib, bu ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Ular o'zaro huquq va burchlar orqali huquqiy munosabat vujudga keltiriladi.

Huquqiy munosabatlar – bu ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solingan bir qismi bo'lib, ularning subyektlari subyektiv huquq va subyektiv yuridik majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Huquqiy munosabatlarning belgilari:

- ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi yuzaga keladigan muayyan aloqalar;
- huquq normalari asosida yuzaga keladi;
- irodaviy xarakterga ega (chunki munosabat yuzaga kelishi uchun kamida bitta tomonning istagi talab qilinadi);
- davlat tomonidan qo'riqlanadi va ta'minlanadi;
- muayyan predmet yoki obyekt nisbatan yuzaga keladi va shu asosda subyektlar o'zaro tegishli subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarni amalga oshiradilar.

Huquqiy munosabatlarni quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- 1.Huquq tarmoqlariga ko'ra:** konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, jinoyat-huquqiy, mehnatga oid, oilaviy va boshqalar;
- 2.Mazmuniga ko'ra:** umumiy tartibga soluvchi, nisbiy, qo'riqlovchi;
- 3.Taraflarning aniqlik darajasiga ko'ra:** mutloq, regulyativ;
- 4.Majburiyatlar xarakteriga ko'ra:** faol tipdagi, passiv tipdagi;
- 5.Subyektlariga ko'ra:** umumiy, muayyan (konkret);

6.Ta'sir etish maqsadiga ko'ra: statik, dinamik;

7.Genetik va funksional aloqalarga ko'ra: moddiy va protsessual.

Huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi uchun **moddiy** asoslar (tomonlarning xohish-istagi, manfaati) va **yuridik** asoslar (mazkur ijtimoiy munosabatni tartibga soladigan tegishli huquq normasining mavjudligi, tomonlarning huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishligi, yuridik faktning mavjudligi) lozim.

Savol: Huquqiy munosabat — huquq normalarining insonlar xulq-atvoriga ta'siri natijasida vujudga keladigan munosabat sifatida uning o'ziga xos tomonlarini muhokama qiling.

Huquqiy munosabatlarning tarkibiy elementlari haqida:

Huquqiy munosabatlarning elementlari: huquq obyekt, huquq subyekt, yuridik faktlar (harakat va hodisalar), subyektiv huquq va yuridik majburiyat.

Huquqiy munosabat obyekti — bu huquqiy munosabat subyektlari (ishtirokchilari)ning huquq va majburiyatlari qaratilgan narsalar, ya'ni huquqiy munosabatlar nimaga qaratilgan bo'lsa, shu narsalar uning obyektini tashkil etadi.

Huquqiy munosabatning obyektlari quyidagilar:

-moddiy qadriyatlar (ashyolar, mulk va b.);

-nomoddiy qadriyatlar (hayot, sog'lik, sha'ni, qadr-qimmat va b.);

-madaniy ijod mahsullari (adabiy asarlar, san'at, muzika, fan, kompyuter dasturlari va b.);

-huquqiy munosabat ishtirokchilarining faoliyati natijalari (masalan: mahsulot yetkazib berish shartnomasi, kapital qurilish pudrati asosida yuzaga keladigan munosabatlar);

-qimmatbaho qog'ozlar va hujjatlar (pul, aksiyalar, plastik kartochkalar, diplomlar, shahodatnomalar va b.).

Huquqiy munosabat subyektlari — huquqiy munosabatlarning subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'lgan ishtirokchilari.

Huquq subyekti — bu qonunga binoan huquqqa ega bo‘lish va zimmasiga yuridik majburiyatlarni olish layoqatiga ega bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxslar.

Jismoniy shaxslar — bular muayyan davlat fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Yuridik shaxslar — qonun bo‘yicha fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining subyekti bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar. Yuridik shaxslar — o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida va operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilotlardir (korxona, muassasa va b.).

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Huquqiy munosabat subyektlari elementlari: **huquq layoqati** va **muomala layoqati**.

Huquq layoqati — shaxsning qonunda nazarda tutilgan subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati. Fuqarolarning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Yuridik shaxslarda esa huquq layoqati uning Nizomi tasdiqlangan paytdan boshlab vujudga keladi.

Muomala layoqati — fuqaro yoki yuridik shaxsning o‘z harakatlari bilan huquqqa ega bo‘lish va o‘zi uchun majburiyatlar yaratish qobiliyati.

Muomala layoqati — bu shaxsning o‘z xatti-harakati orqali huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishining qonunda belgilangan (tan olingan) imkoniyati. Muomala layoqati faqat sud tomonidan cheklanishi mumkin. Fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lishi va ularni amalga oshirishi, o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirishi va ularni bajarishi (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach, to‘la hajmda vujudga keladi.

Subyektiv huquq — bu subyektning sodir etishi mumkin bo‘lgan xatti-harakati turi va o‘lchovi.

Subyektiv yuridik majburiyat — subyektning sodir etishi lozim bo‘lgan xatti-harakati turi va o‘lchovi.

Yuridik faktlar — huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi holatlar. Oqibatlarining xususiyatiga ko'ra, huquqni vujudga keltiruvchi, huquqqa barham beruvchi va huquqni o'zgartiruvchi faktlar farqlanadi. Iroda belgisiga ko'ra, yuridik faktlar ikki guruhga — **hodisalar** va **harakatlarga** (harakatsizliklarga) bo'linadi. Huquq subyektlarining xohish-irodasidan qat'i nazar yuz beradigan vaziyatlar hodisa hisoblanadi. Masalan, tabiiy ofatlar — yong'inlar, suv toshqini, yer qimirlashi va h.k. Ushbu tabiiy ofatlar natijasida odamlar halok bo'lishi mumkin, ularning mol-mulkiga ziyon yetadi, binobarin, zararni qoplash, mol-mulkni meros qoldirish, sug'urta pulini to'lash va hokazo ishlar bilan bog'liq tegishli huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Ushbu hodisalar o'z xohish-irodasiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil hodisalar natijasida yuzaga keladi.

Harakatlar (harakatsizliklar) — kishilar xohish-irodasiga bog'liq bo'lgan, ularning o'zi sodir qiladigan yoki qilishdan tiyiladigan faktlardir. Harakatlar, o'z navbatida, qonuniy (ishga yoki oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish, nikohni ro'yxatdan o'tkazish) va nokonuniy (huquqbuzarliklarning barcha turlari) bo'ladi.

Huquqiy prezumpsiya — nazarda tutiladigan va mavjud bo'lgan faktlar orasidagi aloqalarga asoslangan holda muayyan faktlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi faraz.

Prezumpsiya — aksi tasdiqlanmaguncha biror dalilni yuridik jihatdan to'g'ri deb hisoblash. Normativ huquqiy hujjatlar ijro etilayotganda, ya'ni kishilar xatti-harakatlarida ro'yobga chiqayotganida moddiylashuvga ko'chamiz. Biroq rasmiy hujjat talabini bajarishni faqat bajaruvchi tomonidan uning mazmunini tushunishidagina amalga oshishi mumkin. Huquq, huquqiy tartibga solish uchun qonunni bilish prezumpsiyasi — huquq subyektlari, uning yetishlari huquqiy ko'rsatma, yo'l-yo'riqlar mazmunini "bilishlari" (ya'ni anglashlari, tushunishlari) to'g'risidagi taxmindir.

Prezumpsiyalarni huquqiy mustahkamlanganlik faktiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

-faktik, ya'ni qonunchilikda o'z ifodasini topmagan va yuridik ahamiyatga ega bo'lmagan, lekin, muayyan yuridik ishlarni amalga oshirishda e'tiborga olinadigan prezumpsiyalar;

-qonuniy prezumpsiyalar.

Qonuniy prezumpsiyalar, ya'ni, oldin muayyan ishlar bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlari yoki qonun bilan o'rnatilgan faktik dalillar va tekshiruvlarni ishni ko'rib chiqayotgan sudlar tomonidan tan olinishining majburiyligidir.

Prezumpsiyalarni amal qilish doirasiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1.Umumhuquqiy. Masalan, halollik prezumpsiyasi. Ushbu prinsipning unumli amalga oshirilishi faqat umumiy huquqiy madaniyatning o'sishigagina olib kelmay, balki bevosita samara beruvchi, foydali kuchga aylanadi. Ijtimoiy munosabatlarda ishonchlilik holati, a'zolarining barqarorligiga ishonch, odatda, turli-tuman mayda rasmiyatchiliklarga sarf bo'ladigan ko'plab vaqt va kuchni tejab qolish imkonini beradi.

2.Huquq sohalariga tegishli bo'lgan prezumpsiyalar. Masalan, jinoyat huquqida aybsizlik prezumpsiyasi. Aybsizlik prezumpsiyasi – gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmaguncha va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlanmagunga qadar aybsiz hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 23-moddasida ko'rsatilishicha, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

Huquqdagi fiksiyalar – joriy qonunchilik bilan tan olingan va umummajburiy xarakter kasb etgan, lekin, amalda mavjud bo'lmagan holatlardir (masalan, muayyan shaxsning yo'qolishi sababli ma'lum muddat o'tgandan keyin uning vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma berilgan taqdirda, mazkur shaxsning keyinchalik tirik ekanligi holati).

Savol: Yuridik faktlar – huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi holatlar ekanligini muhokama qiling.

Xulosa

Mazkur maqolada huquqiy munosabatlarning mohiyati, ularning asosiy belgilari, tuzilishi hamda turlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida huquqiy munosabatlar huquq normalarining amalda namoyon bo'lish shakli ekani, ular orqali ijtimoiy munosabatlar tartibga solinishi va huquqiy tartibot ta'minlanishi aniqlandi.

Shuningdek, huquqiy munosabatlarning subyekt, obyekt va mazmun kabi tarkibiy elementlari o'zaro uzviy bog'liqligi bilan ajralib turishi, ayniqsa subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarning birligi ushbu munosabatlarning asosini tashkil etishi asoslab berildi. Huquqiy munosabatlarning turli mezonlar asosida tasniflanishi esa ularning murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida yuridik faktlarning hal qiluvchi o'rni mavjudligi, ular orqali huquqiy aloqalar yuzaga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi aniqlashtirildi. Shu bilan birga, huquqiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy tartibni ta'minlash, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda davlat boshqaruvini samarali amalga oshirishda muhim vosita ekanligi ta'kidlandi.

Umuman olganda, huquqiy munosabatlar huquq tizimining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Ularni chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy huquqshunoslik rivojida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrirlar: H.B.Boboyev, X.T.Odilqoriyev. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. - 528 b.
2. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2007. – 916 b.
3. Islomov Z.M. Теория государства и права (1-qism. Davlat nazariyasi). Darslik. – T.: TDYU, 2013. – 325 b.
4. Lazarev V.V., Lipen S.V., Saidov A.X. Теория государства и права: Darslik. Akad. K.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – M.: Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, 2008. – 620 b.
5. Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / Prof. X.T. Odilqoriyev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.

Xorijiy adabiyotlar

1. Hans Kelsen. General theory of law and state (Huquq va davlatning umumiy nazariyasi). – Cambridge: Harvard University Press, 2009. – 517 p.
2. Scott Veitch, Emilios Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence Themes and Concepts (Yurisprudensiya: mavzular va tushunchalar). Ikkinchi nashr. – L.: Routledge publication, 2012. – 305 p.
3. Hart H.L.A. The Concept of Law (Huquq tushunchasi). 3-nashr. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – 333 p.